Jurnalistning nutq madaniyati: dolzarbligi va ahamiyati

Kumushbibi Ermamatova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
kumush1493@mail.ru

IQTIBOS UCHUN
Ermamatova K. Jurnalistning nutq madaniyati: dolzarbligi va ahamiyati // Zamonaviy fan, texnologiya va innovatsiyalar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (ZFTI–2026, 5-noyabr 2026-yil). – 2026. – B. 90–92. – https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/051116
QR-kod – DOI sahifasiga havola

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada zamonaviy mediada jurnalistlar nutq madaniyatining bugungi holati tadqiq etildi. Unda televideniye, radio va internet platformalarida nutqning talaffuz, grammatika, mantiqiylik va kommunikatsiyaning etik jihatlari tahlil qilindi. Jurnalistlarning nafaqat OAVdagi chiqishlari vaqtidagi, balki material tayyorlash vaqtidagi madaniyati borasida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, kommunikatsiya, etika, imidj.

Bugungi kunda axboriy jamiyatning jadal taraqqiyoti davrida faqat informatsiya va uning sifatigina muhim emas, balki axborot bilan ishlovchi – jurnalistga qo‘yiladigan talablar, uning ish jarayonida o‘zini tutishi, insonlar bilan muloqoti, imidji va kasbiy madaniyat darajasi ham e’tibor markazida bo‘lib bormoqda. O‘z-o‘zidan bu jurnalistning professionalligi va tajribasini ko‘rsatib turadigan asosiy aspektlarga aylanib ulgurgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigida[1] “Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi o‘ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hammamiz sezib-anglab turibmiz. Shu ma’noda, bepoyon mediaolamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat’iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi”, deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, jurnalistika global miqyosda rivoj topib borayotgan ekan, millat, xalq, Vatan manfaatlarini himoya qilishda keng tafakkurli, dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni aniq va xolisona tahlil eta oladigan xalqaro jurnalistlar hamda ularning o‘z so‘zini ayta olish jasorati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sohada global, xususan, lokal miqyosda yutuqlar, rivojlanish va ilgarilash kuzatilayotgani bilan bir qatorda, muammo va kamchiliklar ham kam emas. So‘nggi paytlarda eng dolzarb muammolardan biri ommaviy axborot vositalarida faoliyat olib borayotgan soha vakillarining nutqiy savodxonlik masalasiga borib taqalmoqda. Jamiyatimizda nutq madaniyati darajasi borasida pasayish kuzatilayotganiga bevosita axborot tarqatayotganlarning qator nutqiy kamchiliklari, shuningdek, OAV endilikda nutq bo‘yicha etalon sifatida namoyon bo‘lmayotgani bevo-

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi, 2025-yil 27-iyun.https://president.uz/uz/lists/view/8269

sita bog‘liqligi inkor etilmaydigan faktorga aylandi. Bu holatning asosiy sabablari – so‘zlashishda beparvolik, axloqiy normalarning o‘zgarib borayotgani, nutqiy agressiyaning turli ko‘rinishlari, jargonlarning keng tarqalishi, varvarizatsiya va vulgarizatsiyadir. Nutqiy madaniyatsizlikning turli ko‘rinishlari ommaviy axborot vositalarida ham odatiy holga aylandi.

So‘zlash qobiliyati va nutq madaniyati jurnalistning kasbiy mahorat darajasini belgilaydi, shu ma’noda nutq savodxonligi, nutq madaniyati darajasi, adabiy til me’yorlarini bilishi jurnalist uchun birlamchi talabga aylanadi. Auditoriyaning u yoki bu ommaviy axborot vositasiga munosabati va eng muhimi, ishonchi unda ishlayotgan jurnalistlarning nutq va o‘ziga xos uslubi, fikrlarini ifoda etish qobiliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Jurnalistning nutq madaniyati, ovozi va talaffuzi axborot vositalarining samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Suxandon yoki boshlovchining nutqi uning professional muvaffaqiyatini ta’minlab, axborotni aniq va ta’sirli tarzda yetkazishga imkon yaratadi. Nutq madaniyati va ovozning to‘g‘ri ishlatilishi ommaviy axborot vositalarining global kommunikatsiya jarayonida samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.[2]

Axborotni iste’mol qiluvchilar, ya’ni auditoriya ong ostida ommaviy axborot vositalarida yangragan, quloqqa chalingan yoki o‘qilgan til tuzilmalariga taqlid qilishi tabiiy holat. Yosh bolalarning nutqini rivojlantirish uchun, masalan, o‘zbek tili me’yorlariga rioya qilingan nutq yangraydigan telekanal uyda doimiy qo‘yilsa, diqqat bilan o‘tirib ko‘rilmasa ham eshitish orqali bolaning ong ostiga so‘zlar o‘rnashib qoladi. Shunday qilib, savodli yoki aksincha, savodsiz nutq namunalari keng jamoatchilik e’tiboriga havola etiladi.

Televideniyeda so‘zlarning audio jihatlari (intonatsiya, ovoz balandligi) bilan birga, xatti-harakatlar, mimika va tasvir elementlari (rakurs, yorug‘lik va soya o‘yinlari) ham ma’lumotni qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Televideniye, boshqa ommaviy axborot vositalaridan farqli o‘laroq, axborotni bevosita vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi, bu esa materialning ta’sirchanligini oshiradi.[3]

Inson ovozini, uning nutqini bevosita eshitishimiz mumkin bo‘lgan joylarda ayrim jurnalistlarning til xatolaridan ba’zida qulog‘imizga g‘ashlik tushadi. Mamlakatimizning ayrim telekanallarida vaqti-vaqti bilan tomoshabinlarga ajnabiy tillarni aralashtirib murojaat qilinayotganini ko‘rish ham achinarli. Ayrim teleboshlovchilarning ona tilida ravon va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda so‘zlamayotgani tez-tez quloqqa chalinadi. Ayniqsa, eng baland reytinglarni qayd etadigan “Zo‘r TV” telekanalida boshlovchilar tomonidan ko‘pgina nutqiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatiladi. Ko‘ngilochar formatdagi “Uxlamaysizmi?”, “Ertalabdan salom” kabi ko‘rsatuvlar shular jumlasidandir. Bu boshlovchilarning asosan aktyor va aktrisalar, blogerlardan iboratligi bilan ham izohlanadi.

Ma’lumki, nutq madaniyati omma bilan aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi, shuning uchun barcha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun ularning nutqi savodli bo‘lishi, nutq madaniyatiga rioya qilish juda muhim. Shuning uchun nafaqat ovozni mohirlik bilan boshqarish, muhim jihatlarga intonatsion urg‘u berish, yaxshi notiq bo‘lish, muloqotning noverbal usullaridan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega.

Yana bir ahamiyatli jihati, jurnalist va blogerlar hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqdagi bloglari uchun ham alohida materiallar tayyorlab, o‘z sahifalarida e’lon qilmoqdalar. Ammo bu video-materiallarda nutqiy va kasbiy etika qoidalariga rioya etilmayotgani, respondentlarni noqulay ahvolda qoldirishga urinishlar kuzatilmoqda. Bu esa o‘ziga xos “provokatsiya” sifatida qabul qi-

2. Dusimbetova N. Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasining shakllanish tamoyillari. // FarDU. Ilmiy xabarlar, Volume 31, Issue 1, 2025. – B. 163.
3. Shorokhov, A. V. Speech Culture in the Media: Theoretical and Practical Aspects // Media Education Journal, 2021. – P. 72

linmoqda. Natijada, jurnalist professionalligi yuzasidan auditoriyaning salbiy fikrlari uyg‘onishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, so‘nggi paytlarda ommaviy axborot vositalarining xorijiy so‘z va jargonlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan alohida ishtiyoqini ham qayd etish mumkin. Bu hamma joyda: sarlavhalarda ham, televideniye, radio, ayniqsa, til me’yorlarining eng ko‘p buzilishlari kuzatiladigan internetda ham ko‘zga tashlanadi. Jurnalistning kasbiy mahorati bunday til buzilishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Ayniqsa, bugungi kunda tilimizga chet el so‘zlari oqimi kirib kelayotgan bir paytda, savodsizlikka qarshi kurashish, nutq madaniyati haqida ko‘proq gapirish dolzarblashmoqda.

Nutq madaniyati – bu nafaqat talaffuzning to‘g‘riligi, balki gap qurilishi, qo‘shimchalar qo‘llanilishi, so‘zlardan foydalanishdagi me’yoriy talablarga rioya qilinishini anglatadi. Bugungi kunda nutq madaniyatining kommunikativ va axloqiy me’yorlarining buzilishi ham kuzatilmoqda va keng tarqalmoqda. Avvallari televideniyeda faqat diktorlar chiqish qilgan bo‘lsa, keyinchalik efirda jurnalistlar boshlovchi sifatida namoyon bo‘lgach, bu kabi xatoliklar bilan ishlash dolzarblashdi. Professional jurnalist butun faoliyati davomida yozish mahorati va nutq uslubini takomillashtirib borishi lozim. Zero, jurnalist nutqining obrazliligi tufayli uni taniy boshlaydilar va vaqt o‘tishi bilan uni o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan o‘z ishining ustasi sifatida e’tirof eta boshlaydilar.

Nutq madaniyati alohida shaxsning ham, butun jamiyatning ham madaniyat ko‘rsatkichidir. Insoniyat tomonidan to‘plangan madaniy merosga, jumladan, ona tiliga munosabat qanchalik yuqori bo‘lsa, milliy madaniyat shunchalik uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu muammolar, ayniqsa, jurnalistlarni tashvishga solishi kerak, chunki ular nutq savodxonligining yetakchilari va vakillari bo‘lib, o‘z ommaviy axborot vositalarining ilg‘or maydonlaridan til musaffoligini targ‘ib etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mikhailov, A. Linguistic Culture in Journalism and Its Importance. Moscow: Academia, 2022.
2. Dusimbetova N. Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasining shakllanish tamoyillari. // FarDU. Ilmiy xabarlar, Volume 31, Issue 1, 2025.
3. Shorokhov, A. V. Speech Culture in the Media: Theoretical and Practical Aspects // Media Education Journal, 2021.
4. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: O‘zbekiston, 2009.